

“TASDIQLAYMAN”
Tog‘-kon sanoati va geologiya
vaziri o‘rinbosari

 **U. Yusupov**

2026-yil “20” 01

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni
tashkil qilish bo‘yicha 2026-yil uchun**

YILLIK TAQVIM REJA

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas‘ullar
1.	“Yangi yil – yangi maqsadlar” mavzusida yil davomida amalga oshiriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, xodimlarni “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan islohotlar va yillik maqsadlar bilan tanishtirish.	Yanvar	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas‘ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
2.	Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyatini xodimlar o‘rtasida targ‘ib etish.	Yanvar	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas‘ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
3.	14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Vatanga sadoqat – yuksak ma‘naviyat va fuqarolik burchi” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir (ma‘ruza, davra suhbat, uchrashuv) tashkil etish. (Bayram arafasi kunlarida radiouzel orqali har kuni ertalab ish vaqti boshlanguniga qadar (10-15 daqiqa davomida) vatanni madh etuvchi qo‘shiqlar eshittirilishini tizimli yo‘lga qo‘yish mumkin).	Yanvar	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas‘ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishida ilgari surilgan tashabbuslar asosida "Milli armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni" mavzusida tashkilot tizimida keng targ'ibot ishlarini olib borish.	Yanvar	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
5.	Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan xodimlar o'rtasida "Navoiy va Bobur – milliy tafakkur va ma'naviyatimizning ikki buyuk ustuni" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etish. Tadbir doirasida intellektual bellashuv, "So'z sehri" mushoirasi hamda "Bir bayt – bir hikmat" ijodiy chellenji o'tkazish.	Fevral	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
6.	"2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturining mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish yuzasidan davra suhbatini tashkil etish.	Fevral	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
7.	8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan xodimlar ishtirokida "Ayolga ehtirom" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etish.	Mart	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
8.	21-mart – Navro'z umummilliy bayram munosabati bilan Milliy qadriyatlar oyligi doirasida xodimlar o'rtasida "An'ana, urf-odat va qadriyat" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	Mart	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
9.	Aprel oyining birinchi yakshanbasi “Geologiya sohasi xodimlari kuni” kasb bayrami sifatida nishonlanishi munosabati bilan ushbu bayramni tizimda keng nishonlash choralari ko‘rish.	Aprel	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
10.	9-aprel – Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan “Biz kim, Mulki Turon!” shiori ostida xodimlar o‘rtasida turli xil sport musobaqalari, tanlovlar va marafonlar tashkil etish hamda intellektual o‘yinlar o‘tkazish.	Aprel	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
11.	“Sog‘lom ma’naviy muhit – jamoa boyligi” mavzusida jamoaviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar asosida trening o‘tkazish.	Aprel	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
12.	9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Xotira, ehtirom va g‘amxo‘rlik” loyihasi doirasida keksalar, nuroniylar, urush va mehnat faxriylari, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xayriya tadbirlarini tashkil etish. Xodimlar ishtirokida “Millat fidoyilari” xiyoboniga tashrif buyurish orqali vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazish.	May	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
13.	15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan “Ma’naviyat oiladan boshlanadi” loyihasi doirasida oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, o‘zaro ishonch, hurmat va mas’uliyatni oshirishga qaratilgan ma’naviy-psixologik trening o‘tkazish.	May	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
14.	O‘zbekiston Respublikasi, konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga bag‘ishlangan tadbirlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazish.	May	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
15.	“Yoshlar oyligi” doirasida tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarning farzandlari uchun “Ochiq eshiklar kuni” ni tashkil qilish. Turli musobaqalar o‘tkazish hamda “Farzandlarimizga kitob sovg‘a qilaylik!” nomli kitob yarmarkasini hamda xayriya tadbirlarini tashkil etish.	Iyun	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
16.	“Ma’rifatli yoshlar – millat faxri” loyihasi doirasida vazirlik va idoralarda faoliyat olib borayotgan yoshlar o‘rtasida intellektual musobaqalar o‘tkazish.	Iyun	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
17.	2-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilingan kun munosabati bilan targ‘ibot tadbiri o‘tkazish.	Iyul	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
18.	“Eng namunali vazirlik va idora” tanlovida ishtirok etish.	Iyul	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
19.	“Maromiylik” loyihasi doirasida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirish va yoshlar tarbiyasiga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish (<i>milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan “ommaviy madaniyat”ning salbiy ko‘rinishlarining oldini olish, oila ma’naviyati, axloqi va ajdodlarimizning mustahkam oila haqidagi o‘gitlaridan iborat tavsiyalar berish</i>).	Avgust	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
20.	31-avgust – Qatag‘on qurbonlari xotirasini yod etish kuni munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish	Avgust	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
21.	1-sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35-yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish	Avgust – sentabr	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
22.	El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya kabi illatlarga barham berishga qaratilgan tadbirlarni soha mutaxassislarini jalb qilgan holda tashkil etish.	Sentabr	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
23.	1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkilot xodimlari ishtirokida “Ustozimga ehtirom” chellenjini o‘tkazish.	Sentabr	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
24.	21-oktyabr - O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” shiori ostida bayram tadbirlarini keng miqyosda o‘tkazish. Xodimlarning davlat tilida ish yuritish samaradorligini yanada oshirish hamda fikrlash doirasi, umumiy savodxonligini baholash maqsadida “Umummilliy diktant” loyihasini o‘tkazish.	Oktabr	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
25.	Xodimlarda, ayniqsa yoshlarda OAV va internet tarmoqlaridan samarali foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadida soha mutaxassislari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish.	Oktabr	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
26.	O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ining 35 yilligi munosabati bilan tizim xodimlarining yuksak vatanparvarlik tuyg‘ularini, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish maqsadida “Ol bayrog‘ingni, qalbing uyg‘onsin!” mavzusida targ‘ibot chellenjini tashkil qilish.	Noyabr	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
27.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34 yilligi munosabati bilan “Qomusimni bilmoq istadim” mavzusida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, sohaga oid qonun hujjatlari yuzasidan xodimlar ishtirokida turli intellektual o'yinlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilish.	Dekabr	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
28.	9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Korrupsiya – kelajak kushandasi” shiori ostida xodimlarga korrupsiyaga qarshi faol fuqarolik hissini kuchaytirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlar tashkil etish.	Dekabr	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
29.	10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining 34 yilligi munosabati bilan xodimlar o'rtasida “Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon!” nomli Vatanni madh etuvchi chellenjlar tashkil etish.	Dekabr	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
30.	Xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida “Sog' tanda – sog'lom fikr” shiori ostida (15-20 daqiqa) jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish.	Haftada 2 marta	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
31.	“Ma'rifat soati” ni o'tkazish. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan haftaning har juma kunida eng muhim va dolzarb mavzular haqida ma'lumot berib boruvchi “Siyosiy-ma'rifat soati” ni xodimlar orasida muhokama qilish.	Har hafta	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
32.	Xodimlarning badiiy tafakkuri, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni boyitish maqsadida teatr va muzeylarga tashriflarini tashkil etish.	Har chorakda	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
33.	Xodimlar o'rtasida “Zakovat” intellektual o'yini tashkil etish. 1. “Birinci va ikkinchi renessans – buyuk daholar davri” . 2. “Millat oydinlari” (jadid mutafakkirlari faoliyatini o'rganish maqsadida).	Yil davomida	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
	3. "Kitob – ma'naviyat ko'zgusi" (kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida) mavzularida.		
34.	Xodimlarning dunyoqarashini kengaytirish, odob-axloq me'yorlariga rioya etish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida ma'naviy-ma'rifiy treninglar, seminarlar hamda interfaol mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish.	Har chorakda	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
35.	"Yurtim tarixini o'rganaman" shiori ostida xodimlar ishtirokida tarixiy obidalariga sayohatlar tashkil etish.	Yil davomida	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
36.	Tashkilot tizimidagi ma'naviy va ma'rifiy ishlarga mas'ul xodimlarning bilim va malakalarini oshirish hamda ularning faoliyatini takomillashtirish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda o'quv kurslarini tashkil etish.	Yil davomida	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
37.	Tashkilot ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarini "Ma'naviyat yog'dusi" loyihasi doirasida kitobxonlik, halollik, o'zaro hurmat va shaxsiy rivojlanishga oid iqtiboslar, aforizm, hikmatli iboralar hamda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi "quiz" testlar bilan boyitib borish.	Yil davomida	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
38.	Tizimda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni vazirlikning rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida va elektron ommaviy axborot vositalarida yoritish.	Yil davomida	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mas'ullari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

Eslatma:

Vazirlik, idora va nodavlat tashkilotlari tomonidan faoliyat turidan kelib chiqib, "Yillik taqvim reja"ga tegishli qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ammo, Markaz tomonidan taqdim qilingan bandlar (36 ta band) o'zgarishsiz qoladi.

**Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini
oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga
rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha
maslahatchisi**



Z. Axmedova



(Magdiyev)

